


## INVESTORLAR UCHUN SOLIQ IMTIYOZLARI

**Matmurodov Hayotbek Davronbek o'g'li***Toshkent davat yuridik universiteti**"Xususiy huquq" fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biz dunyoning turli mamlakatlarida investorlar uchun yaratilgan turli xil yengilliklar, qulayliklar hamda soliq imtiyozlari haqida, shuningdek undagi mavjud kamchiliklar va bo'shliqlar haqidagi tahlilni ko'rib chiqamiz. Investorlarga berilgan soliq imtiyozlarini dunyoning rivojlangan davlatlari Britaniya hamda Yaponiya tahlilida o'rganamiz. Qolaversa soliqda qo'llanilishi mumkin bo'lgan qanday imtiyozlar mavjudligi hamda bu imtiyozlar asosan qayerlarda qo'llanilib qanday natijalarga olib kelayotganligini ko'rib chiqamiz. Shuningdek O'zbekiston Respubliasi hududida ushbu ishlar qay tartibda amalga oshirilayotganligiga ham to'xtalib o'tamiz. Maqolada chet el sarmoyadorlari uchun turli yengilliklar yaratish imkoniyatlari, soliq imtiyozlarini yaratish va soliq imtiyozlariga ixtisoslashtirilgan erkin iqtisodiy zonalar haqida ham malumotlar mavjud.

**Annotation :** In this article, we will look at the various reliefs, conveniences and tax incentives created for investors in different countries of the world, as well as the analysis of the existing shortcomings and loopholes. We will study the tax benefits given to investors in the analysis of the developed countries of the world, Britain and Japan. In addition, we will consider what tax incentives are available and where these incentives are mainly used and what results they bring. We will also dwell on the order in which these works are carried out in the territory of the Republic of Uzbekistan. The article also contains information on the possibilities of creating various reliefs for foreign investors, creating tax incentives and free economic zones specialized in tax incentives.

**Абстрактный:** В этой статье мы рассмотрим различные послабления, удобства и налоговые льготы, созданные для инвесторов в разных странах мира, а также проанализируем существующие недостатки и лазейки. Изучим налоговые льготы, предоставляемые инвесторам, на анализе развитых стран мира, Великобритании и Японии. Кроме того, мы рассмотрим, какие существуют налоговые льготы и где эти льготы в основном используются и какие результаты они приносят. Также остановимся на порядке проведения этих работ на территории Республики Узбекистан. В статье также содержится информация о возможностях создания различных льгот для иностранных инвесторов, создания налоговых льгот и свободных экономических зон, специализирующихся на налоговых льготах.

**Kalit so‘zlar:** investor, soliq imtiyozlari , YUNKTAD , SEIS, erkin iqtisodiy zona, fiskal imtiyozlar

**Key words:** investor, tax incentives, UNCTAD, SEIS, free economic zone, fiscal incentives

**Ключевые слова:** инвестор, налоговые льготы, ЮНКТАД, SEIS, свободная экономическая зона, фискальные льготы.

Hozirgi kunda dunyo mamlaktalari o’z iqtisodiyoti va ijtimoiy salohiyati oshirish maqsadida chet ellik investorlarga turli xil soliq va harakat imtiyozlarini joriy qiladi. Bu harakatlar esa mamlakatning biznes va ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Investisiya qabul qiluvchi mamlakatdagi soliq rejimi investorning qaror qabul qilishida muhim ahamiyatga ega.


Davlatlar o’rtasida xorijiy investisiyalarni jalg qilish bo‘yicha raqobat kuchaygani sharoitida, xorijiy investorlar motivlaridan kelib chiqib, ularning mamlakat iqtisodiyotiga investisiya kiritishga bo‘lgan qiziqishi, xohishini yanada kuchaytirish maqsadida hukumatlar tomonidan turli ko‘rinishdagi imtiyozlar, yengilliklar taqdim qilish amaliyoti mavjud. Masalan, xorijiy investorlar uchun ayrim turdagи soliqlardan ozod qilish, soliq ta’tillari berish, soliq yuklarini kamaytirish, soliqlarni qaytarish, qo‘sishcha qiymat soliqlarini pasaytirish kabi shakllarda imtiyozlar tizimi taqdim qilinadi.

**YUNKTAD** ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar oqimi 1,56 trln AQSH dollarini tashkil qilgan holda, 2020 yilga nisbatan 64 foiz o’sish qayd etildi. Va albatta, investisiyalar oqimining o’sishida investorlar uchun berilgan imtiyozlarning alohida roli bor.

**Keling investisiyalarni rag‘batlantiruvchi soliq chora-tadbirlariga to’xtalib o’tsak.**

Tahlillarga ko‘ra, 2011-2021 yillar mobaynida 100 ta davlat tomonidan soliqqa tortish tizimi bo‘yicha qator chora-tadbirlar qo‘llanilgan, xususan, 90 ta davlatda soliq stavkalari pasaytirilgan, yangi soliq imtiyozlari qo‘llanilgan yoki mavjud imtiyozlar tizimi yanada kuchaytirilgan. Soliqqa tortish bo‘yicha joriy qilingan imtiyozlarning 17 foizi xorijiy investorlar, 83 foizi esa mahalliy va xorijiy investorlar uchun tegishlidir. Oxirgi 10 yillikda dunyo bo‘yicha soliq tizimi islohotlari aksariyat hollarda investisiyalar uchun rag‘batlantiruvchi ahamiyatga ega bo‘lgan: 83 foiz davlatlarda butun iqtisodiyot yoki alohida tarmoq uchun investisiyalarni rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlari qo‘llanilgan. Rivojlanayotgan davlatlarda – 84 foiz, kam rivojlangan mamlakatlarda – 82 foiz va rivojlangan mamlakatlarda – 81 foiz soliq islohotlari xorijiy investisiyalar jalb etishni jadallashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, Osiyo mintaqasi mamlakatlarida 96 foiz soliq islohotlari investorlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Минтақалар бўйича инвестициялар учун  
рағбатлантирувчи солиққа оид чора-тадбирлар (фоизда)




### Foyda solig'i imtiyozlari haqida:

Dunyo mamlakatlarida investisiyalarni rag'batlantiruvchi soliq tizimi choralarining asosiy qismi foyda solig'i bilan bog'liq tadbirlarga yo'naltirilgan (jami yangidan joriy qilingan soliq imtiyozlarining 49 foizi). Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 2011-2022 yillarda foyda solig'i bo'yicha investorlarga berilgan imtiyozlarning 34,4 foizi Afrika mamlakatlari, 27,4 foizi Osiyo mamlakatlari, 22,1 foizi Lotin Amerikasi va Karib havzasasi, 16,1 foizi Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Egri soliqlar va bojxona yig'implari hamda boshqa soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning ham eng katta qismi Afrika mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Tahlillarga ko'ra, oxirgi o'n yillikda investorlar uchun berilgan moliyaviy imtiyozlarning 11 tasi Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari, 10 tasi Osiyo mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu borada Afrika (4 ta) va Lotin Amerika hamda Karib havzasasi mamlakatlarining (3 ta) ulushi nisbatan pastdir. 2011 yildan boshlab 42 ta davlatda investorlar uchun foyda solig'i stavkasini pasaytirish imtiyozlari qo'llanilgan va ushbu imtiyozlarning jami soliq imtiyozlaridagi ulushi 16 foizni tashkil qiladi. Alohida qayd etish lozimki, jami soliq imtiyozlarida foyda solig'ini pasaytirish amaliyoti rivojlangan mamlakatlarda 21 foizni, rivojlanayotgan

mamlakatlarda 16 foizni hamda kam rivojlangan mamlakatlarda 14 foizni tashkil

**2011-2021 йилларда асосий йўналишлар ва миңтақалар бўйича  
инвесторлар учун жорий қилинган имтиёзлар сони**




qiladi.

### Investorlar uchun soliq ta'tillari

Dunyo mamlakatlari bo'yicha investorlar uchun taqdim qilingan fiskal imtiyozlarning 39 foizi korxonasi foydasiga nisbatan qo'llanilgan. 55 ta mamlakatda xorijiy va mahalliy investorlar uchun soliq ta'tillari joriy qilingan. Jami fiskal imtiyozlarning 20 foizi soliq ta'tillariga tegishli bo'lib, ushbu ko'rsatkich kam rivojlangan mamlakatlarda 22, rivojlanayotgan mamlakatlarda 19 va rivojlangan mamlakatlarda 17 foizni tashkil qiladi.

Dunyo bo'yicha investorlar uchun joriy etilgan soliq ta'tillarining o'rtacha 42 foizi 0-5 yil muddatga, 36 foizi 6-10 yil muddatga va 22 foizi 10 yildan ko'p muddatga berilgan.

### Амал қилиш муддати ва минтақалар бўйича солиқ таътиллари (фоизда)



#### Tarmoqlar

#### bo'yicha

#### berilgan

#### soliq

#### imtiyozlari

Tahlillarga ko'ra, dunyo mamlakatlari bo'yicha investisiyalarni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining 57 foizi aniq soha va tarmoqlar uchun qo'llanilgan. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda 70 foiz va kam rivojlangan mamlakatlarda 55 foiz foyda solig'ini kamaytirish bilan bog'liq imtiyozlar aynan alohida tarmoqlar uchun yo'naltirilgan.

Shu bilan birlashtirishda, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida joriy qilingan kamaytirilgan foyda solig'i imtiyozlarining uchdan ikki qismi kiritilgan investisiya miqdoriga asosan to'liq yoki qisman qo'llaniladi. Oxirgi o'n yillikda investisiyalarni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining asosiy qismi ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga yo'naltirilgan. Xususan, dunyo mamlakatlari bo'yicha investorlar uchun qo'llanilgan soliq imtiyozlarining 37 foizi ishlab chiqarish, 32 foizi xizmatlar sohasiga taalluqli. Qishloq xo'jaligi sohasi uchun qo'llanilgan imtiyozlar 17 foizni, foydali qazilmalar qazib olish tarmog'iga qo'llanilgan imtiyozlar esa 14 foizni tashkil qiladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlariga xizmatlar sohasi uchun joriy qilingan investisiyalarni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozları muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xizmatlar sohasi uchun qo'llanilgan

soliq imtiyozlarining ulushi Lotin Amerikasi va Karib havzasi hamda Afrika mamlakatlari uchun ham yuqoridir.

Shu bilan birgalikda, Osiyo mamlakatlari uchun ishlab chiqarish sohasiga qo'llanilgan soliq imtiyozlarining muhimligi qayd etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, foydali qazilmalarni qazish va qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha berilgan imtiyozlarning asosiy qismi rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

### **Chet el tajribalari:**

Hozirgi kunda dunyo mamakkatlari ichida buyuk Britaniya o'z hududida biznes sohasi va davlatga investorlarni jalg qilish uchun katta harakatlar amalga oshirmoqda va shu sababli hozirgi kunda biznes olib borish uchun juda qulay mamlakatlardan biriga aylanib turibdi.

Hozirgi kunda Britaniyada investorlar uchun asosan investorlar foya olishi mummin bo'lган ikki xil sxemalar mavjud; Enterprise \*EIS- korxona investitsiya tizimi] va Seed Inteprise Investment Scheme [SEIS- urug'lik korxonalarining investitsiya tizimi Korxona investitsiya tizimi[EIS]

Ushbu tizim Britaniyada 1994-yilda tashkil qilingan bu soliq tizimi yangi tashkil qilingan va korxona va kompaniyalrni qo'llab quvvatlash va amaliy yordam ko'rsatish kabi asosiy maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu tizimga ko'ra, investitsiya kiritgan sarmoyador birinchi yildanoq daromad solig'inining aksiyalar qiymatiga binoan 30 foiz miqdorida soliqlardan yengilliklar ega bo'lgan \*2+. IES lar investorlar uchun birinchi yilgi investitsiyalari uchun 30 foizgacha berilgan imtiyozlari o'z davri uchun juda kattta imtiyoz hisoblangan. Agarda ushbu holatda investorlar 1 million funt sterling miqdorida investitsiya kiritadigan bo'lsalar, ushbu holada kompaniya yuqori texnologiya va yuqori bilim talab qilinadigan kompaniya bo'lsa, yuqoridagi 30 foizlik soliq imtiyozlari yarim baravargacha ko'tarilishi ham mumkin, bu qoida esa katta miqdordagi investitsiyalar va yuqori texnologik kompaniyalarni Britaniya bozoriga kirishi qulay va daromadli sohaga aylantirdi.

EIS tatbiq qilingan 1994-yildan beri 2016-2017-yilga qadar 27 905 ta korxona chet el sarmoyasini olgan va bu mablag'lar 18 milliard funt qilgan; □ 2016-2017-yillarga kelib esa 3 470 ta korxona sarmoyalarga ega chiqqan va kiritilgan mablag'larning jami 1.797 milliard funt sterlingga yetadi.

Britaniya soliq imtiyozlari tizimida yana bir tizim bo'lib, u ham o'ziga xos afzalliklarga ega. Seed Enterprise Investment Scheme, yoki SEIS tizimi ham mavjud bo'lib, u 2012-yilda hukumat tomonidan Britaniyada soliq to'laydigan subyektlar uchun dastlabki bosqichda tashkil qilingan korxonalarga sarmoya kiritish uchun rag'bat sifatida tashkil qilingan.

Investorlarning soliq imtiyozlari 50 foizgacha yetishi mumkin. Bu degani agarda siz SEIS bo'yicha 100 ming funt sterling sarmoya qilgan bo'lsangiz 50 ming funt imtiyoz olishingiz mumkin degani, agarda siz qayta investitsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirsangiz 50 foizlik imtiyozga 14 foizlik imtiyoz qo'shiladi va natijada sizning soliq imtiyozlaringiz 64 foizli natijaga yetadi. Bu qoida esa sarmoyadorlarni bitta sarmoya bilan cheklanmasdan va qayta sarmoya kiritishga undaydi va rivojlanishni ham ta'minlaydi.

2016-2017-yillarda SEIS tizimi orqali 2260 ta korxona moliyalashtirgan. Tizim orqali 175 million funt sterling miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilgan. Ammo ushbu natijalar 2015-2016-yillardagi natijalardan biroz past hisoblanadi. Ushbu yillarda 2405 korxona jami hisobda 182 million funt sterling mablag' yig'gan. Bu mablag' va natijalar kelgusida yuqorilashi ehtimoli katta chunki rivojlanishlar davomiy tarzda amalga oshirilmoqda

Yaponianing investorlarga yaratilgan afzalliklaridan biri bu erkin iqtisodiy zonalaridir. Shu kabi hududlar Yaponiyada 22 ta bo'lib, ular aeroportlar, vokzallar va portlar oldida joylashgan bo'lib, mahsulotni tashish, olib kelish, eksport qilish uchun qulay hududlarda tashkil qilingan. Bu zonalar turli ishlab chiqaril bosqichlari uchun imtiyozlar mavjud jumladan tashqi investorlar uchun quyidagi imtiyozlar mavjuddir; □ Yaponianing erkin iqtisodiy zonalariga qo'shilgan investorlar ishlab chiqarishdagi import qilinadigan maxsulotlari va reeksport qilinadigan tovarlar uchun tariflar o'ng 100 foizigacha va shu bilan birga ichki iste'mol soliqlaridan 100 foizigacha □ Omonatga iqtisodiy zonasida faoliyat yuritadigan kompaniyalr uchun esa olinadigan daromad solig'ining 30 foizi 10 yillik muddatga korporativ soliqlardan ozod qilinadi

### **O'zbekistonda investorlar uchun taqdim qilingan imtiyozlar**

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning qiziqishini kuchaytirish maqsadida bir qator soliq imtiyozlari qo'llanilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb qilishni rag'batlashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3594-sonli Farmoniga muvofiq, 20 ta ishlab chiqarish sanoati sohalari (Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan tashqari), turizm va chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish (Respublikaning barcha hududlarida) korxonalariga quyidagi to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiya hajmlarida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutilgan:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 mln AQSH dollarigacha — 3 yil muddatga;
- 3 mln AQSH dollaridan ortiq va 10 mln AQSH dollarigacha — 5 yil muddatga;
- 10 mln AQSH dollaridan ortiq bo'lganda — 7 yil muddatga.

Xorijiy va mahalliy investorlar uchun kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan neft, tabiiy gaz, oltin, mis, volfram va uranni qayta ishlash sohalariga yangi soliq va bojxona imtiyozlari joriy etilgan. Imtiyozlar qatorida yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlarning pasaytirilishi va mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari va maxsus jihozlar uchun bojxona to‘lovlaridan ozod etish kabi tadbirlar mavjud.

Shuningdek, investisiyalar jalb qilishni rag‘batlantirish maqsadida fiskal xarakterga ega bo‘lmagan imtiyozlar ham joriy etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4434-sonli Farmoniga asosan, umumiyligi 50 mln AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan investisiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikasiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag‘lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-son Farmoni asosida, chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investisiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirildi. Chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to‘g‘risidagi talab bekor qilindi, chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdori 600 mln so‘mdan 400 mln so‘mgacha kamaytirildi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati uchun ustav fondining eng kam miqdori 200 mln so‘m va chet el investisiyalari ulushi 15 foiz). Chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat boji miqdori uch baravarga kamaytirildi, aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdori 400 mln so‘m miqdorida belgilandi. Shuningdek, ushbu farmon assosida investisiya kiritish vaqtida O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan bazaviy hisoblash miqdorining 8 500 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari va ulushlarini sotib olish, shuningdek, xorijiy korxona tashkil etish shaklida O‘zbekiston Respublikasiga investisiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga ko‘p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagagi “Eksport faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4707-sonli Qaroriga muvofiq, eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga mahsulotlarni eksport qilishda avtomobil, havo va temir yo‘l transportida tashish xarajatlarini qisman kompensasiya qilish amaliyoti joriy qilingan.

## Xulosa

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga ko‘ra, mamlakatda investisiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Xususan, kelgusi besh yilda mamlakat iqtisodiyoti 120 mlrd AQSH dollari, jumladan 70 mlrd dollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish, 2026 yilgacha xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd AQSH dollariga teng investisiya jalb etish kabi ulkan maqsadlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Albatta, ushbu maqsadga erishishda O‘zbekistonning investision imijini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar bilan birligida xorijiy investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, berilgan imtiyozlar ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim soha va tarmoqlariga investisiyalarni rag‘batlantiruvchi soliq imtiyozlarining qo‘llanilishi global investisiya bozorida mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

- 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsiya faoliyatini to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
- 01.08.2018 yildagi PF-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
  - 11.04.2005 yildagi PF-3594-sonli “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
    - 10.04.2012 yildagi PF-4434-sonli “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
      - Investing in Japan. By Shinya Tago and Yuuki Mutou, Iwata Godo Law Office (First Law International Board Member Firm). Law state dasat 01 Feb 2019 • Japan
        - GCV . What tax reliefs area available when investing in UK startups? Craig Peterson . 9 Oct 2018 • 4 min read • Updated on 31 Aug 2022
        - International Monetary Found. Tax Policy for Developing Countries. Vito Tanzi, Howell Zee. © 2001 International Monetary Fund. March 2001